

KEYINGI YILLAR O`ZBEK SHE'RIYATIDA POETIK SHAKLLARNING**YANGILANISHI****Dilorom Tosheva,**

IIV Buxoro akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o`qituvchisi

Annotatsiya

ushbu maqolada zamonaviy o`zbek she'riyatida shakl va mazmun jihatidan ro'y berayotgan o`zgarishlar, yaratilayotgan she'rlarning janriy xususiyatlari, yangi paydo bo'lgan she'riy shakllarning genezisi, rivojlanish shartlari haqida mulohaza yuritilgan.

Kalit so`zlar: zamonaviy she'riyat, mumtoz adabiyot, poetik ifoda, poetik shakl, uchlik, beshlik, oltilik, janr.

XX asrning so`nggi choragi XXI asr boshlari o`zbek she'riyatida shakl va mazmun o`zgarishlari sezilarli ijodiy jarayonga aylandi. "Natijada she'riyatimiz asrlar davomida amal qilib kelingan poetik kanonlarni inkor qilib, o`zgargan mazmun-mohiyatga mos yangi shakl bobida izlanishlar davriga kirdi. Bu izlanishlarning eng muhim va she'riyatimizda tub yangilanishga olib kelgan yo`nalishlari sifatida she'rning ritmik-intonastion sathida, poetik ifoda yo`sini va subyektiv tashkillanishdagi o`zgarishlarni ko`rsatish mumkin"¹. Avval, milliy o`zlikni anglash, o`z fikrini ifoda qilish shaklida kechgan jarayon, keyinchalik yangi fikr aytish maqsadida o`ziga xos shakl va ifoda topishga urinish, yangi janrlar yuzaga kelishi kabi hodisalar bilan kuchayib, adabiyotimiz, xususan, she'riyatimizdagi rang-baranglikni ta'minladi. Zero, "badiiy ijod tabiati mazmunan o`zgarar ekan, u o`ziga xos shakl, obrazlar olami va ifodaga ehtiyoj sezadi. Shuning uchun hamisha yangi janrlar vujudga kelgan, takomillashgan yoxud iste'moldan chiqqan. Ayni paytda, har bir alohida janr tabiatida muttasil sifat o`zgarishi ortib borar ekan, muayyan janr an'anaviy kanonlari haqida gapirish o`rinsizdir. Zotan, janr xususiyatlari konkret asar va uning tabiatiga ko`ra namoyon bo`ladi"². Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, ijodkorlarning ijodiy izlanishlari natijasida o`zbek she'riyatida birlik, ikkilik, uchlik, oltilik poetik shakllari yuzaga keldi, sonet janri rivojlandi. Ular o`zbek mumtoz adabiyoti va jahon adabiyoti yutuqlari bilan boyitilgan holda zamonaviy shoirlar ijodidan o`rin oldi. Binobarin, taniqli she'rshunos olim N.Rahimjonov ta'kidlaganiday: "An'anaviy janrlardan tashqari yana mavzu problemalariga ko`ra tavsiflanuvchi ijtimoiy-siyosiy, peyzaj, ishq muhabbat lirikasi yo`nalishida, sonet, ikkilik fard, uchlik xokku, tanka, oktava, beshlik, oltilik, sakkizlik singari poetik janr va shakllarda ham e'tiborli izlanishlar jarayoni kechmoqda"³.

¹ Ulug'bek Hamdam. Yangi o`zbek she'riyati: ilmiy maqolalar. – Toshkent: Adib, 2012. – B. 174. .

² Yoqubov I. Istiqloq. Adabiyot. Tanqid... – Тошкент: Turonzamin ziyo, 2015. – B.110.

³ Rahimjonov N. Mustaqillik davri o`zbek she'riyati. Toshkent: Fan, 2007. – B. 66.

Shu bilan birga bu davr she'riyati mazmun jihatidan ham yangilandi. Unda xalqona ohang kuchaydi, xalq qo'shiqlari ruhidagi she'rlar yaratildi. Ma'rifiy- axloqiy mazmun kuchaydi. Shulardan kelib chiqib, keyingi yillar o'zbek she'riyatiga xos xususiyatlar va yetakchi tamoyillar quyidagilarda namoyon bo'lganligi kuzatiladi:

1. Mumtoz janrlarda she'r yozishga qiziqishning ortishi. (J.Kamol, E.Vohidov, S.Sayyid).
2. Xalqona ohangning kuchayishi (E.Shukur, S.Sayyid).
3. Poetik shakllardagi yangilanish (F.Afro`z, E.Shukur, A.Obidjon, I.Subhoni).

Adabiyotshunos N.Jabborov ham "Zamon. Mezon. She'riyat" nomli kitobida xuddi shu jihatlarga alohida e'tibor qaratadi. Ya'ni zamonaviy mavzularni ko'hna aruzda ifodalashga intilish, she'riyatda xalqona ohanglarga ehtiyojning ortishi, poetik shakldagi yangilanish, poetik obrazlardagi yangilanish tarzida asoslab beradi⁴. Mazkur ishimizda so'nggi yillar o'zbek she'riyatida kechgan uslubiy shakliy izlanishlarni poetik shakllardagi yangilanishlar nuqtayi nazaridan tadqiq qilish nazarda tutilgan. Haqiqatan, keyingi yillar o'zbek she'riyatida Anvar Obidjon "ignabarg", "uchchanoq", "uchpaxsa", Farida Afro`zning "fiqra", "tasbeh", I.Subhoniyning "shashqator" deb nomlanuvchi birlik, ikkilik, uchlik, oltilik singari badiiy shakllar yuzaga keldi. Shu bilan birga R.Parfi, Eshqobil Shukurning uchlik bandlardan tashkil topgan mumtoz adabiyotdagi musallas, jahon she'riyatidagi terset, tersina janrlariga uyg'un she'rlar yaratildi. Binobarin, bunda uchlik-xokku-terset-tersina-musallas, ikkilik-fard-masnaviy, musaddas-oltilik tizimida o'zgarishlarni qiyosiy o'rganish zarurati paydo bo'ldi. Shundan kelib chiqib, keyingi yillar o'zbek she'riyatida yuzaga kelgan yangilanishlarning badiiy estetik omillarini quyidagicha ko'rsatish mumkin:

1. Jahon she'riyatining badiiy estetik tajribalari;
2. O'zbek mumtoz she'riyati an'analari.

Zamonaviy she'riyatimizda yuz ko'rsatgan birlik, ikkilik, uchlik shakllarini H.Umurov, Q.Yo'lchiyev singari olimlar poetik janr sifatida talqin qilishgan. Jumladan, H.Umurov uchliklarni falsafiy-adabiy janr deya baholaydi⁵. Q.Yo'lchiyev ham birlik va uchliklarni janr sifatida talqin etadi.⁶ Janr talablari qat'iy bo'lganidan biz birlik, ikkilik, uchlikkabilarni badiiy shakl sifatida talqin etish yo'lidani boramiz.

Zamonaviy o'zbek she'riyati ham shaklan, ham mazmunan yangilanib bordi. S.Sayyid, A.Qutbiddin, F.Afro`z, E.Shukur singari shoirlarimiz ijodi bunga dalil bo'la oladi. Xususan, Eshqobil Shukur va Farida Afro`zning shakliy-uslubiy izlanishlari ijodiy kamolot bosqichidagi ijodkorning qiyofasini yorqin namoyon etib turadi. Bu ikki ijodkorning keyingi yillarda dunyo yuzini ko'rgan asarlari mulohazalarimizga oydinlik kiritadi. Binobarin, adabiyotshunos A.Ulug'ov taniqli shoir E.Shukur ijodi haqida fikr yuritarkan: "Hamal ayvoni"dagi she'rlarda katta-yu kichikning ko'nglidagi kechinmalari, hayotdan tilaklari, orzu-

⁴ Jabborov N. Zamon. Mezon. She'riyat. Toshkent, G'.G'ulom nomidagi nashriyot matbaa birlashmasi, 2015.

⁵ Umurov H. "Uchlik"larning sizga atalgan saboqlari. –Toshkent, 2018. –B.4.

⁶ Yulchiyev Q. O'zbek she'riyatida birlik va uchlik poetikasi. PhD dissertatsiyasi. Toshkent, 2017. – B. 23.

armonlari aks etadi. Shoir har birimizning hech kimga, hatto, o'zimizga ham ovoz chiqarib aytolmaydigan, ko'nglimiz tubida turgan kechinmalarni jaranglagan so'zlarda ifoda etadi", deya ta'kidlaydi⁷ Haqiqatan, shoir qalb tuyg'ularini jaranglagan so'zlarda ifoda etish uchun unga mos badiiy shakllar izlashga intiladi.

Ko'rinadiki, so'nggi yillar o'zbek she'riyatidagi shakliy-uslubiy yangilanishlarning asosiy omillari o'zbek mumtoz she'riyati va jahon she'riyati badiiy-estetik tajribalaridan o'rganishda namoyon bo'lgan. O'zbek she'riyatida o'zbek mumtoz she'riyati ta'sirida birlik, ikkilik, uchlik, oltilik sinagri badiiy shakllar yuzaga keldi. Jahon she'riyatidagi xokku, tanka, terset, tersina, singari janrlardagi asarlardan ta'sirlanish esa xuddi shunday asarlar yozilishiga zamin yaratdi. Bu, albatta, zamonaviy o'zbek shoirlarining o'zbek mumtoz she'riyati an'alarini davom ettirishi va jahon she'riyati yutuqlarini o'zbek adabiyotiga olib kirishida namoyon bo'ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ulug'bek Hamdam. Yangi o'zbek she'riyati: ilmiy maqolalar. – Toshkent: Adib, 2012.
2. Yoqubov I. Istiqlol. Adabiyot. Tanqid... – Тошкент: Turonzamin ziyo, 2015.
3. Rahimjonov N. Mustaqillik davri o'zbek she'riyati. Toshkent: Fan, 2007.
4. Jabborov N. Zamon. Mezon. She'riyat. Toshkent, G'.G'ulom nomidagi nashriyot matbaa birlashmasi, 2015.
5. Yulchiyev Q. O'zbek she'riyatida birlik va uchlik poetikasi. PhD dissertatsiyasi. Toshkent, 2017.
6. Ulug'ov A. Qalb qandili. –Toshkent, 2015.

⁷ Ulug'ov A. Qalb qandili. –Toshkent, 2015. – B. 130.